



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Farg‘ona davlat universiteti uchun
MAXSUS SON**

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Abduvoxidov A.A. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
Olimova N.X. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
Эргашев А.Х. Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
Yulchiyev A.O. Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
Karimov Sh.X. Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
O‘rinboyev D.B. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R. Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
Israilova M.V. Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
Turg‘unov M.M. Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
Mannopova M.S. Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
Nematova Sh.E. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
Rasulov U.A. Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
Raximov D.Sh. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
Teshabayeva O.N. Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
Jaksimova Z.R. Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
Yunusov A.R. "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
Юнусов Ш. Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
Xalmatjanova G.D. Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
Xomidov Q.Q. O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
Jo‘rayev H.Q. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari	114
Xakimov D.R. Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
To‘xtasinova D. Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
Xolmatov B.A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
Jumakulov Z.I., Baxromov B. O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
To‘ychiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
Abdisamatov Sh.A. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
Asraqulov A.S. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
Muxtorov A.A., Mirzayev A.T. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
Usibjonova G.U., Mannopova M.S. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N. O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	166
Ximmatova G.K., To‘xtasinova D. Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	170
Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	174
Xasanova R., Teshabayeva O.N. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	180
Zufarova G.A. Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	184
Ergashev J.S. "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish	187
O‘rinov A.A. Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	192
Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A. Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	197
Саиджоновна З.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	201
Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	205
Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	210
Хайдаров Х. Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	214
Махамადийев М.М. Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	217
Madaminov G‘.M. Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	222
Nazirboyev D.D. Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	227
Хасанова С.И. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	232
Teshaboyev B.A. Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	237
Mustafoyeva Z.A. Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	242
Xolmirzayev U.A., Muradova N.R. Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	245
Sadullayev R.P. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	249
Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н. Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	258
Tursunov O.B. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘rishni ta‘minlash.....	269
Sayitbayev Sh.D. Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘rish.....	274
Ibodulloyeva Z.S. Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	278
Salimova Z.S. Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	282
G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K. Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	286
Абдуллоев А.Ж. Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	289
Rahimova M.I. O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	294
Rahmatullayeva D.O. Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	299
Valikulov Sh.Z. “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	305
Турабекова Г.И. Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	312
Tajiboyev S.O. Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	316
Madaminov A.M. Sanoat korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	319

SANOAT ISHLAB CHIQUARISHINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH JARAYONLARI VA QAYTA ISHLASH TARMOG‘INING RAQOBATBARDOSHLIKKA TA’SIRI

ПРОЦЕССЫ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ПРОМЫШЛЕННОГО ПРОИЗВОДСТВА И ВЛИЯНИЕ ОТРАСЛИ ПЕРЕРАБОТКИ ОТХОДОВ НА КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ.

DIVERSIFICATION PROCESSES OF INDUSTRIAL PRODUCTION AND THE IMPACT OF THE RECYCLING INDUSTRY ON COMPETITIVENESS

Raximov Davronbek Sharibjonovich

Farg‘ona davlat universiteti Jahon va mintaqa iqtisodiyoti kafedrası o‘qituvchisi
ORCID – 0000-0002-1306-9942

Annotatsiya

Takror ishlab chiqarishga bo‘lgan layoqatini oshib borishi tushunchasini haqida ma’lumotlar keltirilgan, yoqilg‘i-energetika bozorining monopollashuv darajasi

Kalit so‘zlar: diversifikatsiya, xom ashyo sektori, qayta ishlash sanoati, biznesga ishonch muhitini baholash.

Представлены данные о понятии повышения способности к воспроизводству, степени монополизации топливно-энергетического рынка

Ключевые слова: диверсификация, сырьевой сектор, перерабатывающая промышленность, оценка доверия к бизнесу.

Data on the concept of increasing reproduction capacity, the degree of monopolization of the fuel and energy market are presented.

Keywords: diversification, raw materials sector, processing industry, business confidence assessment.

Sanoatning raqobatbardoshligiga ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash, iste’molga tayyor va yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish orqali qayta ishlash sanoati tarmog‘ini xom ashyo yetishtiruvchi tarmoqlarga qaraganda, ustuvor rivojlantirish hisobiga erishildi.

Diversifikatsiyaning resurs konsepsiyasiga muvofiq, firmalar mavjud o‘shish salohiyatidan – tashkiliy qobiliyatlar yoki meros qilib olingan boshqaruv resurslaridan foydalanib, diversifikatsiya orqali o‘smoqdalar. Resurs konsepsiyasining rivojlanishi firmaning o‘shish strategiyasini uning resurs salohiyati bilan belgilagan E.Penrouz tadqiqotlaridan boshlanadi. Bu esa ushbu konsepsiya tarafdorlariga (B.Vernerfelt, D.Tis, R.Ramelt, Dj.Dozi, S.Uinter, S.Montgomeri va b.) firma tomonidan bog‘liqli va bog‘lanmagan diversifikatsiyani tanlash nima bilan belgilanishini aniqlash imkonini berdi. D.Tis, R.Ramelt, Dj.Dozi va S.Uinterlar diversifikatsiya strategiyasini tanlashni belgilovchi “korporativ ichki kelishuvchanlik” tushunchasini kiritadilar [1; 2; 3]. Masalan, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar nuqtai nazaridan bir xil, ammo resurslar turli toifalari o‘rtasida korporativ ichki kelishuvchanlik turli darajasi va tarkibiga ega bo‘lgan firmalar turli diversifikatsiya strategiyalarini amalga oshiradilar. Firmaning ichki kelishuvi mualliflar tomonidan “tayanch biznes”ga yo‘naltirilishda ko‘rildi. “Tayanch biznes” konsepsiyasi, o‘z navbatida, firmaning uni qolganlardan raqobatli farqlovchi qobiliyatlari to‘plamini ko‘zda tutadi.

Keltirilgan ma’lumotlar 2023 yilda asosiy fondlar hajmi bo‘yicha qayta ishlash sanoatining xom ashyo sektori ustidan 3 marta, investitsiyalar bo‘yicha 17,5 marta va amortizatsiya bo‘yicha 2,3 martaga ortib boruvchi ustunligi tendensiyasini ifodalaydi (1-jadval).

O‘zbekiston Respublikasida xom ashyo sektori va qayta ishlash sanoati bo‘yicha asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi va nisbati, mlrd.so‘mda, joriy narxlarda

	Asosiy fondlar		Asosiy fondlarga investitsiyalar		Sof foyda		Amortizatsiya	
	2020	2024	2020	2024	2020	2024	2020	2024
Xom ashyo sektoriga nisbatan qayta ishlovchi ishlab chiqarishlarning ilgarilovchi ko‘rsatkichlari, % da	184,9	210,2	86,2	237,7	404,3	1760,8	251,0	245,6
- mutlaq o‘shish, mlrd.s.	21967	63874,1	-1965,7	32408,8	10562,9	28165,1	12347,8	29035,2
- o‘simning ortishi, % da	100	290,8	100	1748,7	100	266,6	100	235,1

Natijada respublika iqtisodiyoti nafaqat tabiiy, balki o‘zlashtirilgan raqobat ustunliklarini hisobga olishga asoslangan samarali tovar ishlab chiqarish uchun sifatli o‘z-o‘zini tashkil qiluvchilarning shakllanib borayotganligi tufayli takror ishlab chiqarishga bo‘lgan layoqati oshib bormoqda. 2020 yilga nisbatan 2024 yilda iqtisodiyot raqobatbardoshligining ortishi makroiqtisodiy muhitning yaxshilanib borayotganligi bilan bog‘liqdir. Bu esa keyingi yillarda tabiiy monopoliyalarni cheklash, rag‘batlantiruvchi va aniq yo‘naltirilgan davlat sanoat-texnikaviy siyosatining olib borilayotganligi hamda iqtisodiy-ijtimoiy yo‘naltirilganlik evaziga yaratilayotgan imtiyozlardan yetarli foydalanilishida o‘z ifodasini topadi.

Kapitalning xom ashyo va qayta ishlash sektorlari o‘rtasida taqsimlanishi mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyalashuviga olib keluvchi asosiy institutsional sharoitlar hisoblanadi:

- uglevodorod xom ashyosi bozorining moliya-byudjet tizimi orqali qo‘llab-quvvatlanayotganligi;

- bozor tadbirkorlik faolligiga bosim berayotgan va investitsiya qo‘shilmalarining innovatsion yo‘naltirilganligini qo‘llab-quvvatlayotgan samarali soliq-moliya tizimi;

- yangi yuzaga kelayotgan tabaqalashuv, jahon bozorlari va iqtisodiy ittifoqlarning (JST, YEOII, ATES, IHTT va b.) integratsiyalashuvi sharoitida taqqoslama raqobat ustunliklaridan foydalanish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar;

- ichki va tashqi bozorlardagi raqobatni hisobga olib, milliy qayta ishlovchi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi.

Raqobatni rivojlantirish bo‘yicha boshqaruv yo‘nalishlariga qaramasdan, o‘zaro muvozanatlashgan makroiqtisodiy dinamikani ta‘minlash va ichki iqtisodiy muhitni barqarorlashtirish, bozor munosabatlarini erkinlashtirish borasidagi islohotlar orqali jamoatchilik talabiga ega bo‘lgan, milliy biznes hamjamiyati obyektiv ehtiyojlarini ham, tashqi bozor sharoitlarini ham hisobga oladigan ijobiy natijaga erishish mumkin bo‘ladi. O‘zbekiston Raqobatbardoshlik indeksida 154 davlat orasida 0,017 indeks bilan 89-o‘rinni egalladi va reytingdagi o‘rnini 5 pog‘onaga yaxshiladi, bu esa mamlakatimizga sanoat rivojlanishi kvantli o‘rtacha bo‘lgan davlatlar toifasiga kirish imkonini berdi (indeks metodologiyasiga ko‘ra). 6 ta indikator bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlar qayd etilgan bo‘lsa, 2 ta indikator bo‘yicha ko‘rsatkichlar pasaygan.

Yoqilg‘i-energetika bozorining monopollashuv darajasi haddan tashqari yuqori: “Urgenchtransgaz” UK, “O‘zbekgidroenergo”AJ, “Issiqlik elektr stansiyalari”AJ, “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari”AJ, “Hududiy elektr tarmoqlari”AJ, “O‘zbekneftgaz” AJ, “O‘ztransgaz” AJ, “Hududgazta‘minot” AJ, “Maxsusenergogaz” AJ, “O‘zbekiston temir yo‘llari”AJ, “O‘zbekiston pochta” AJ, “Tuyamuyun-Nukus mintaqalararo suv quvuridan foydalanish boshqarmasi”DUK,

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 3-son 2026 yil

“Damxo‘ja mintaqalararo suv quvurlaridan foydalanish boshqarmasi” DUK, Toshkent viloyati Chimgan-Chorbog‘ rekreatsion hududiy mintaqalararo suv quvurlaridan foydalanish boshqarmasi” DUK, “O‘zaeronavigatsiya” DUK yoqilg‘i-energetika xom ashyosi ichki bozorida yetakchi o‘rin egallaydi, ularning jami ulushi 70% dan ortadi. Shu singari vaziyat tashqi bozor uchun ham xosdir.

Davlat ishtirokidagi neft-gaz tarmoqlarining yuqori monopollashuv darajasiga qaramasdan, ular daromadlarining o‘sishi joriy byudjet xarajatlarini va boshqa tarmoqlardan soliq tushumlari mutlaq o‘simining pasayishini qoplashni to‘xtatdi. 2011-2022 yillarda boshqa tarmoqlardan soliq tushumlari ulushi ikki baravar kamaydi. Bu davlatning neft-gaz kompaniyalaridan soliqlar hisobiga byudjet sarflarini qoplash siyosatini davom ettirayotganidan dalolat beradi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, 2022-2026 yillarda yuqorida ta’kidlab o‘tilgan yo‘nalishlarda hayotga tatbiq etilgan islohotlarni samarali davom ettirish, mavjud resurs va imkoniyatlarni safarbar etgan holda, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmini yanada oshirish, 2030 yilga borib esa jon boshiga hisoblaganda, O‘zbekistonning aholi daromadlari o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirishi maqsad qilingan.

2-jadval

2024 yilning IV-choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da

	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar		
	Ko‘payish (yaxshilanish)	o‘zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish)
Korxonaning umumiy aylanmasi	49,4	40,0	10,6
Band bo‘lganlar soni	28,3	64,5	7,2
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	41,2	53,3	5,5
Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari	32,0	61,0	7,0
Raqobat muhiti	41,9	53,7	4,4
	Yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli		
Korxonaning umumiy aylanmasi	52,8	42,8	4,4
Band bo‘lganlar soni	33,3	63,0	3,7
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	42,7	53,6	3,7
Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari	36,6	58,5	4,9
Raqobat muhiti	44,0	52,6	3,4

Jadvaldan ko‘rinadiki mamlakatda raqobat muhiti o‘tgan yilgi shu davriga nisbatan ijobiy tendensiyaga ega bo‘lgan.

Bunga esa xususiy sektorni rag‘batlantirish va uning ulushini oshirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda drayver sohalarda klaster tizimini rivojlantirish orqali erishish ko‘zda tutilgan. O‘z o‘rnida aytish kerakki, iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlarning samarali va jadal rivojlanishi mamlakatdagi YAIM hajmining ortishiga, ya‘ni aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ichki mahsulot hajmining ko‘payishiga olib keladi.

Iqtisodiyotning xom ashyo va qayta ishlovchi tarmoqlaridagi soliq bosimini tenglashtirish uchun soliq tizimi global manevri biznes hamjamiyat taklifiga ko‘ra, quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

- qazib oluvchi sektorga ish haqidagi sug‘urta to‘lovlarini oshirish va ushbu ko‘rsatkichni qayta ishlovchi sanoat uchun mutanosib ravishda pasaytirish hisobiga sektorlar bo‘yicha soliq stavkalarining ifodali tabaqalashuvidan;

- innovatsion yo‘nalishdagi qayta ishlovchi ishlab chiqarishda QQS ni pasaytirish, vaqt bo‘yicha emas, balki bozor raqobatbardoshligiga ega va eksport qilinayotgan mahsulotdagi ulushidan kelib chiqib, soliq ta‘tillarini kiritish.

Ishlab chiqaruvchiga soliq to‘sig‘ini umumiy pasaytirish zarurati turli ishlab chiqarishlar va iqtisodiyot sektorlari uchun soliq imtiyozlari va preferensiyalarining oddiy tartiblangan taqdim etilishi bilan hal qilinmaydi. Butun soliq siyosatini uning, birinchi navbatdagi, fiskal yo‘nalishidan innovatsion tarkibiy qismiga urg‘u bergan holda biznes uchun sezilarli iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishga tubdan qayta yo‘naltirish zarur. Statistika ma‘lumotlarga ko‘ra, biznesga jami amaldagi soliq yuki O‘zbekiston Respublikasida hozirgi vaqtda AQSH va g‘arb iqtisodiyotidagi 40-45% o‘rniga 20-25% ni tashkil etadi[1].

Jahon banki baholashlariga ko‘ra, u 50,7% oraliq‘ida turibdi, bu rasmiy baholashlardan (33-35%) 1,5 martaga ortib ketadi, neft-gaz sektorini hisobga olmaganda, 24,3%, bu Kanada, Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya, Shveysariyadagiga nisbatan yuqori[4]. Xorijiy tajriba ko‘rsatishicha, yuqori stavkalar byudjetlarning to‘ldirilishiga to‘sqinlik qiladi va aksincha, soliqlardan qochishni rag‘batlantiradi. O‘zbekistonda biznesga soliq yuki Xitoy, Kanada, Germaniyadagiga nisbatan past, buning natijasida ishlab chiqarishni u yerda joylashtirish foydaliroq, bu esa O‘zbekistonda noxom ashyo tovarlari eksportini rag‘batlantirishga ko‘maklashadi. Jumladan, eksportyorlarni xom ashyo bilan uzluksiz ta‘minlash, aylanma mablag‘lar ajratish, kredit, bojxona va soliq bo‘yicha qo‘shimcha imtiyozlar joriy etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Raximov, D. (2024). Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 1(5).
2. Raximov, D. S. (2022). Directions Of Diversifying Innovation Processes In The Industry Network. *World Economics and Finance Bulletin*, 16, 107-110.
3. Raximov, D. (2023). Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning tarixiy rivojlanish bosqichlari. *FAN JURNALI TA‘LIM VA MADANIYAT*, 1(1), 4-14.
4. Rakhimov, D. S. (2023). THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN PRIORITY DIRECTIONS OF INDUSTRY DIVERSIFICATION. Publishing House “Baltija Publishing”.
5. Рахимов, Д. (2019). Свободно-экономические зоны-расширение экспортного потенциала Узбекистана. *Архивариус*, (12 (45)), 42-44.